JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 20-noyabr | 222-3-52-Q/24 | Paxtakor tuman hokimligi

Avtomobil yo‘llarida harakatlanishni vaqtincha cheklash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 2-oktabrdagi 117–sonli “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonunining 23-moddasining 2–4 bandiga asosan 4R 32 “Yangiyer sh–Paxtakor sh–Jizzax-Chimqo‘rg‘on” avtomobil yo‘lining 60-65 km oralig‘ida transport vositalarining harakatini cheklash maqsadida, tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 28-sentabrdagi 124-soni xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. 4R 32 “Yangiyer sh–Paxtakor sh–Jizzax-Chimqo‘rg‘on” avtomobil yo‘lining 60-65 km oralig‘ida mavjud zovurning avtomobil yo‘lini ko‘ndalang kesib o‘tgan qismidagi nosoz quvurini ta’mirlash ishlari tugatilganligiga qadar transport vositalarining harakati cheklansin.

2. Paxtakor tumani IIB YHXB (G‘.Erbekov)ga transport vositalarining harakatini cheklash to‘g‘risidagi belgilarni o‘rnatilish va avtomobillar harakatini nazoratga olish yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qurbonov)ga ushbu qarorni tuman hokimligi ijtimoiy tarmog‘i hamda ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilish yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov hamda tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Y.Akaboyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Ashurov**